Spektroskopik tahlil ma'lumotlaridan kelib chiqib formamid, asetamid va propionamid birikmalarida amidlar koordinatsiyasi kislorod atomi orqali amalga oshiriladi. Atsidoligandlar chastotalari $\nu(\text{H-C})$ $\nu(\text{C-C})$ holatlari tahlilidan karboksil gruppalarining dentatnligi aniqlandi. Ikki anionli suksinat tarkibida ko'prikcha usulidagi koordinatsiyalanishga bog'liq o'zida bi-, tri- yoki tetradentatnli komplekslarni namoyon qiladi. Steritik halaq beruvchi uglevodorod radikali o'sishi bilan amidlarning asosligi tushadi va bu holat formamiddan propionamidgacha kompleks hosil qiluvchilik qobiliyatni kamaytiradi. Propionamid molekulasida imidoalkogol shaklining qo'llanish sabablari muhokama qilingan. Metall va asidoligand tabiatiga bog'liq bo'lmagan holda karbamid, tiokarbamidli komplekslarda apikalli ligand koordinatsiyalanishi karbonil gruppasidagi kislorod atomi orqali amalga oshiriladi. Laktat anioni koordinatsiyasi gidroksil va karboksil gruppasidagi kislorod atomi hisobiga sodir bo'lib, laktat anioni bidentatlikni

namoyon qiladi va besh a'zolik xelat siklini hosil qiladi. Ayni paytda uch anionlik limon kislotasi koordinasiyalanishning geptadentatli ko'prikcha usulini polimer tuzilishli kompleksni hosil qilish bilan namoyon qiladi. Metilendikarbamid molekulasi koordinasiyalanish xususiyatining metall, asidoligand tabiatiga va komplekslar tarkibiga bog'liqligi ko'rsatildi: karbonil gruppasidagi kislorod atomi orqali; kislorod atomi va olti a'zoli sikl hosil qiluvchi ikkilamchi azot atomi orqali; koordinasiyalanishning ko'prikcha usuli bilan karbonil gruppasidagi kislorod atomi va ikkilamchi amin gruppasi azot atomining ikkita olti a'zoli metalllosikllar bilan hosil qilishi orqali. Bunda karboksil gruppaning dentatlik xarakteri noldan ikkigacha almashinadi. Pirazinamidli birikmalardagi ligand koordinasiyasi markaziy atom tabiatiga va komplekslar tarkibiga bog'liq. Pirazinkarbonli kislota va pirazinamid anionining metalllosiklining hosil bo'lishiga bo'lgan moyilligi taqqoslandi. C-O bog'ining uzayishi siklini to'xtashini va besh a'zoli sikl hosil bo'lishiga pirazinkarbon kislota anionining yuqori moyilligini ta'minlovchi xelatli effektning namoyon bo'lishiga yordam beradi. Barcha birikmalarda nikotinamid molekulasida geteroatomli azot orqali koordinasiyalaydigan monodentatli ligand rolini o'ynaydi. Asidoligandlar tabiatiga bog'liq ravishda komplekslar M-M bog'ga ega ikki yadroli monomer, dimer va polimer tuzilishli oktaedrik hamda kam holatlarda tetraedrik konfiguratsiyali markaziy atomlarga ega bo'lishlari mumkin. Suksinatli va sitratli komplekslar uchun suv molekularining va karboksil gruppa kislorod atomlarining konkurentli koordinasiyasi muhokama qilingan. Izonikotin kislota gidrazidi komplekslarida apikal ligandi geteroatom azoti, yoki kislorod atomi va besh a'zoli siklini hosil qilishi bilan boradigan gidrazid zanjiri azoti orqali koordinirlanadi. Ftivazidli birikmalarda ftivazid koordinasiyasi metalllosikl hosil bo'lishi bilan boradigan fenol va metoksil gruppa kislorod atomi orqali amalga oshiriladi. Larusan barcha komplekslarda azot geteroatomli orqali koordinirlanadi. Asidoligandlar bidentat yoki tetradentat koordinasiyalanish usuliga ega. Metazid metall karboksilatlar bilan uch tipda koordinasiyalanadi: azot geteroatomli orqali, kislorod atomi orqali va besh a'zoli siklini hosil qiluvchi azot va bir vaqtini o'zida oxirgi ikki bog'lanishni qo'llash [23].

Bir qator ishlarda kvant kimyosi uslubi bilan erkin va koordinirlangan ligand molekularining tuzilishi, konfarmasiyasi, elektron strukturasi va reaksiya qobiliyati tadqiq qilindi. Ligandlar koordinasiyasi atomlarda zaryadlarning sezilarli qayta taqsimlanishiga va shu bilan birga chegaradagi orbitallar energiyasiga ta'sir qilib, natijada amidlarning reaksiya qobiliyatlarini rostdashni ta'minlaydi [24].

Spektrlarning diffuzion aksi natijalari asosida markaziy ionlar koordinasion bog'larining geometrik konfiguratsiyasi aniqlandi. Spektrokimyoviy parametrlar hisoblandi va kristall maydondagi Ni (II) komplekslarda, ligandlar bir qatarga joylashishi ko'rsatilgan: nikotinamid > formamid > pirazinamid > asetamid > salisilamid > metilendikarbamid > suv.

Olib borilgan tahlillar asosida beshta kompleks birikmalarning kristall va molekulyar strukturalari aniqlashtirildi va rasshifrovka qilindi. $\text{CoC}_4\text{H}_4\text{O}_4 \cdot (\text{H}_2\text{O})_4$ va $\text{CoC}_4\text{H}_4\text{O}_4 \cdot (\text{H}_2\text{O})_2 \cdot (\text{NKA})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ molekulari tuzilishi kobalt atomining oktaedr bo'lishi bilan polimer xarakterga ega. Suksinatli dianion ko'prik koordinatsiyasini namoyon qiladi. NKA molekulasiga aksial koordinirlangan N_2O almashinish suksinat gruppasining koordinatsiyalanish xarakteriga ta'sir o'tkazmasligi ta'kidlandi. Mis asetati monogidratining ikki yadroli tuzilishi past haroratda (-183°C) saqlanishi isbotlangan. EPR spektri anomaliyasi bo'yicha xona va past haroratlarda mis asetatini formamid, asetamid, nikotinamid, monometilolkarbamid, karbamid, salisilamid, izonikotin kislotasi gidrazidi, ftivazid va nitrokarbamid uchun $\text{Cu}_2(\text{CH}_3\text{HOO})_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ tipidagi ikki yadroli tuzilish taklif qilindi.

Sintez qilingan komplekslarning termik holati tadqiqot natijalari formamid, asetamid va propionamid komplekslarining bosqichma-bosqich organik ligandni yo'qotishi bilan parchalanishini ko'rsatdi. Asidoligandlar, markaziy ion tabiati va tuzilish xarakteri birikmaning termoliz turg'unligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Komplekslarning deaktivatsiyasi karboksil gruppasi dentatnligining oshishi bilan kechishini ko'rsatdi. Uzlaksiz ishlaydigan reaktorlarda 10 tadan ortiq kompleks birikmalar o'rganilgan. Komplekslarning degidratatsiya va deaktivatsiya mexanizmining kinetik parametrlari hisoblab chiqildi. Tadqiq qilingan

birikmalarda dominirlovchi mexanizm bo'lib fazalararo silindrik simmetriya va Juravleva-Lesoxina-Tempelmanning uchlamchi diffuziya modeli bo'lishi aniqlandi.

Olingan natijalarning foydalanish sohasi o'tkazilgan tadqiqotlar asosida foydalanish mumkinligi ko'rsatilgan. Ayrim holatlarda metall karboksilatlarining amidlar bilan o'zaro tanlab ta'sirlashuvi asosida metallar va organik ligandlarni tozalash, ajratish va aniqlash ishlari olib boriladi. Kam qonlikka, yallig'lanishga, aterosklerozga qarshi ta'sir ko'rsatuvchi metall oksidlari va kompleks birikmalarning fizik-mexanikaviy va dekarativ xossalarini yaxshilash uchun glazurli komponentlarni olingan, shuningdek g'o'za, bug'doy, makkajuxori, sofler va bosmalarning hosildorligini oshiruvchi yuqori samaradorli stimulyatorlar yaratilgan.

$[\text{Cr}_3\text{O}(\text{O}_2\text{CCH}_3)_6(\text{NA})_3] \cdot \text{PF}_6 \cdot 3\text{CH}_3\text{CH}$ (I) tarkibli Cr^{3+} ning nikotinamid-(NA) bilan kompleksi bir guruh olimlar tomonidan o'rganilgan. Kukunsimon namuna I ning 2-300 K harorat oralig'ida magnitlik xossasini o'lchash Sr^{3+} ning uchta ioni antiferromagnit ravishda $j = -10,4 \text{ cm}^{-1}$ bilan bog'langanligini ko'rsatdi. Birikma (I) ning RSA usuli bilan kristall strukturasini aniqlangan. Cu^{2+} ning mochevina bilan $[\text{Cu}_2(\text{O}_2\text{CC}_n\text{H}_{2n+1})_4(\text{CO}(\text{NH}_2)_2)]$ ($n=5$ do 11) va $[\text{Cu}_2(\text{O}_2\text{CC}_5\text{H}_{11})_4(\text{CO}(\text{NH}_2)_2)_2]$ – II tarkibli koordinasion birikmasi mualliflar [147] tomonidan sintez qilingan va o'rganilgan. Olingan komplekslarning tadqiqotlari elementn analiz, elektron spektroskopiya, tebranma spektroskopiya, difraksii rentgen nurlarining difraksiyasi, magnitlik xossalarini o'lchash usullari bilan olib borilgan. RSA ning II usuli bilan uchun kristall struktura aniqlandi. Sintez qilingan birikmalarning biologik faolligi izlanishlari asosida fungisidlik xossalari aniqlandi. $[\text{ZnO}_7\text{H}_2\text{C}_{13}\text{H}_{17}] \cdot \text{C}_7\text{O}_3\text{H}_5$ tarkibli salisilatning [sinka triakva (salisilat) (nikotinamid)] kristall strukturasini keltirilgan.

Struktura diskretli kompleks kationlar va ularga vodorod bog'lanish bilan birikkan nokoordinirlangan salisilat gruppasidan tuzilgan. Buzilgan trigonal-bipiramidal va kvadrat-piramidal strukturaning oraliqaro atomi Zn ning koordinasiyalangan poliedri hisoblanadi. Metall va karbonil kislorod atomi ($\text{Zn} \dots \text{O}$

2,687Å) o'zaro zich ta'sirlashuvini hisobga olib, ruh atomi K.ch.-6 ga ega. Kompleks kationda ichki molekulyar vodorod bog'lanish O-H...O hosil bo'ladi.

Mualliflar tomonidan sintez qilish sharoiti, 41 ta qattiq 3d–metall qator psevdamidoasetatli koordinasion birikmalar aniqlandi. Tebranma spektroskopiya, elektron diffuzion aks ettiruvchi spektrlar, rentgenfazali, derivatografik va kvantkimyoviy tahlillar asosida bu birikmalarning individualligi va tuzilishi isbotlandi.

Spektroskopik ma'lumotlar asosida quyidagilar aniqlandi:

-asetamid, karbamid, nitrokarbamid birikmalarida ligand koordinasiyasi karbonil gruppasidagi kislorod atomi orqali amalga oshiriladi.

-tiokarbamidli birikmalarda koordinasiya oltingugurt atomi orqali sodir bo'ladi

-Nikatinamid molekulasida birikmalarda azot geteroatomi orqali koordinasiyalanib, monodentatli ligand rolini o'ynaydi.

Kvankimyoviy tadqiqot usullar yordamida $\text{Cu}_2(\text{CH}_3\text{COO})_4 \cdot \text{AA} \cdot \text{ANK}$ tarkibli ikki yadroli mis asetati kompleksi va $\text{Zn}(\text{CH}_3\text{COO})_2 \cdot \text{TK} \cdot \text{ANK}$ tarkibli oktaedrik konfiguratsiyali ruh asetatining tuzilishi, elektron strukturasi va reaksiya qobiliyati tadqiq qilindi. Atomlarda zaryadlarning taqsimlanishi, koordinasion bog'dagi atomlarning gibrid holati qayta tahlil qilindi. ESDO natijalari asosida Mn(II), Co(II) larning har xil amidlar bilan kompleks birikmalaridagi markaziy atom oltita koordinasion bog'ga ega ekanligi ko'rsatildi. Kobaltli birikmalar uchun parchalanish parametrlari kristall maydon 10 Dq bilan hisoblab chiqildi. Sintez qilingan komplekslarning termik holati tadqiq qilindi. Natijada AA kompleksi bosqichma-bosqich suv va asetamid molekulasining parchalanishi bilan yo'qotilishi aniqlandi. Kompleks termolizining bosqichi asetat gruppasi, neytral ligandlar, markaziy ion koordinasiyalanish usuliga va kompleks tuzilishiga sezilarli bog'liqdir. Tadqiqot natijalari asosida dastlabki ikki valentli marganes, kobalt, nikel, mis va ruh asetatining ikki molekula amidlar bilan mexanokimyoviy o'zaro ta'sirida ikkita suv molekulasining almashinishi, shuningdek asetat gruppasining

bidentatli koordinasiyalanish natijasida markaziy atomning suvdan to'la xalos bo'lishi aniqlandi.

Metall karboksilatlar kompleks birikmalarining suvli eritmalarining bug'doy, qizilmiya, bosma va g'o'za hosildorligiga stimulyatorlik ta'siri urug'larni namlash yo'li bilan sinovdan o'tkazilgan. Mazkur tajriba ishlari O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi botanika instituti, paxtachilik ilmiy-tekshirish instituti va Respublika urug'chilik va paxtachilik ilmiy-tekshirish institutida olib borilgan. O'tkazilgan tajribalar G-6 preparatidan foydalanilganda urug'ning unib chiqish energiyasi alohida tashkil qiluvchi komponentlarni qo'llashga nisbatan sinergetik samaradorlik hisobiga ortadi. G-6 dastlabki birikmalari mexanik aralashmalarining samaradorligi G-6 samaradorligiga yaqin bo'lib keyingisi suv muhitidan ajratib olingan. X-3 i S-5 komplekslari atirgul va bosma urug'ining unib chiqishiga va o'sib chiqish energiyasiga stimulyatorlik ta'siri ifodalanilib, mazkur o'simliklardan zararsiz bo'yoqlar olinadi. Atirgul urug'ining yantar kislotasi, X-3 va X-5 ni qo'llashdagi unib chiqish 66,71, 161,90 va 95,30 % ni tashkil etib, bosma urug'ining unib chiqishi esa 4.26, 7.28, 9,22%. ni tashkil qildi. G-17 preparatining qizilmiya o'sish energiyasiga bo'lgan stimulyatorlik ta'siri O'zR FA botanika institutida o'tkazildi. Qirq kunlik kuzatishlar G-17 preparatining qizilmiya o'simligi organlarining o'sish va rivojlanishiga stimulyatorlik ta'siri namoyon bo'lishini ko'rsatdi.

G-13, TJ – 85, T – 86 preparatlarining g'o'za o'sishiga stimulyatorlik ta'siri kam zaharli va yuqori samarali bo'lib chiqdi. Koordinasion birikmalarning stimulyatorlik xossasi metall tabiatiga, koordinasiyalanish usuliga va asidoligandlarga, shuningdek komplekslarning tarkibiga va tuzilishiga bog'liqligi aniqlangan.

Stimulyatorlarning ko'p yillik va ko'p tomonlik tadqiqotlari, nafaqat, hosildorlikni oshirib qolmay, balki urug' sinfini ham yaxshilaydi, o'simlik rivojlanishi davrida namlikning bug'lanishini 15-20% ga kamaytiradi, oxirgi mahsulotni texnologik ko'rsatkichlarini yaxshilaydi. G-13 preparati g'o'zani

etishtirishda qishloq xo'jaligida foydalanish uchun Respublika ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi ilmiy kengashida tasdiqlangan va tavsiya qilingan.

1.3.Koordinatsion birikmalarning mehanokimyoviy sintezi

Sintezda quruq texnologik operatsiyalarga o'tish imkoniyati qattiq fazadan moddalarning suyuq va gaz holatiga o'tmasdan amalga oshirilishi izlanuvchilarni doimo o'ziga jalb qilib kelgan. Qattiq fazali sintezning kamchiligi jarayonning sekinligi, bunda qattiq reagentni kichik yuzasi bilan bog'lanib borishida va ularning yetarlicha bo'lmagan qismi bilan aralashishda deb hisoblanadi. Bundan tashqari qattiq fazali reaksiyada jarayon borishida mahsulot qatlami kinetik rejimdan diffuzion rejimga o'tganda boshlang'ich reagentlar parchalanadi. An'anaviy usullarda qattiq fazali jarayonlarni intensivikasiya qilishda (haroratni ko'tarish va jarayonga mos ravishda reaksiya aralashmani davriy yanchib turish) doimiy qulay bo'lmaydi, chunki bunda mahsulotni kutilmagan o'zgarishlarga olib kelishi, qizib ketish (termik parchalanish, deaktivatsiya , yuqori xaroratli polimorf formaga o'tib qolishi va b) olib kelishi mumkin. Shu sababli qattiq fazali reaksiyalarni intensivikasiya usulida alternativ usullarni izlash kerak bo'ladi. Bunday usullardan biri qattiq reagentlar aralashmalarini mexanik aktivlash usuli hisoblanadi. Bunda aralashmadagi komponentlar orasida kimyoviy reaksiyalar borish sharoiti yaxsilanadi.

Mexanik qayta ishlengandan yoki qattiq fazali reaksiyaning o'zi mehanokimyoviy ta'sirdayoq amalga oshadi. Aralashmaga mehanokimyoviy ishlov berish natijasida reagentlar orasidagi ta'sirlar soni, ta'sirlar yuzasi tabiiy ravishda ortadi. Zarrachalar orasidagi ta'sir kuchi doirasida mahsulotlar ajralishini amalga oshiradi va reagentlar orasidagi o'zaro o'z-o'zidan ta'sirni kuchaytiradi. Ya'ni diffuzion markaz kinetik markazga o'tadi.

Bundan tashqari ishqalanish natijasida issiqlik ajralishi ta'sirlashtirish doirasida suyuqlanishga olib kelishi mumkin. Bu jarayonni intensivlashtiradi. Hususan metalli sistemada va molekulyar kristalli sistemada sodir bo'ladi.


Geksasianoferrat(II) ning rangi va spektral harakteristikasi.

Tuzlar	Mahsulot rangi	Mahsulot unumi %	Spektr harakteristikasi			
			$\Lambda_{\max}$ yutil., nm	% yutil.	$\Lambda_{\max}$ qayt., nm	%
$\text{Mn}_2\text{Fe}(\text{CN})_6$	oq	90	$\Lambda=400$	8	$\Lambda=430-750$	100
$\text{KFe}[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ $\delta\epsilon_{3B}$	To'q siyohrang	90	$\Lambda_1=430$ $\Lambda_2=750$	77 87	$\Lambda=465$	28
$\text{KFe}[\text{Fe}(\text{CN})_6]$	havorang	90	$\Lambda_1=430$ $\Lambda_2=720$	74 88	$\Lambda=460$	31
$\text{KFe}[\text{Fe}(\text{CN})_6]$	Ko'k	90	$\Lambda=750$	87	$\Lambda=400$	26
$\text{Co}_2\text{Fe}(\text{CN})_6$	pushti	85	$\Lambda_1=400$ $\Lambda_2=520$	52 32	$\Lambda_1=470$ $\Lambda_2=600$ $\Lambda_2=690$	75 85 100
$\text{Cu}_4\text{Fe}(\text{CN})_6$	Qizg'ish jigarrang	90	$\Lambda_1=510$ $\Lambda_2=750$	69 69	$\Lambda_1=400$ $\Lambda_2=630$	40 58
$\text{Cu}_2\text{Fe}(\text{CN})_6$	Qizg'ish jigarrang	90	$\Lambda=530$	79	$\Lambda=670$	40
$\text{Cu}_2\text{Fe}(\text{CN})_6$	Qizg'sh jigarrang (shaffof)	98	$\Lambda=510$	77	$\Lambda=690-750$	36
$\text{Cu}_4\text{Fe}(\text{CN})_6$	Havorang	80	$\Lambda_1=400$ $\Lambda_2=720$	52 80	$\Lambda=490$	70
$\text{Zn}_2\text{Fe}(\text{CN})_6$	Oq	95	$\Lambda=400$	12	$\Lambda=440$	100


Zamonaviy texnologiyalarning rivojlarishi natijasida maydalovchi qurilmalardan foydalangan holda intensiv tarzda mehanik ta'sirlashish hisobiga kristal materiallarni olish ancha dolzarb masala bo'lib qoldi.

Zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarida mehanik energiyani qo'llash va moddalarni kerakli zvenolarini turli xollarda turli texnologik jarayonlarni amalga oshirishga tayorlash muhim xisoblanadi. Keng ko'lamdagi kimyoviy homashyo va materiallar metallurgiya, oziq- ovqat va boshqa ishlab chiqarishda mehanik ishlov berish talab qilinadi. Maydalashda keng tarqalgan va energiya uzatishning effektiv usuli " harakatli zarba berish " usuli hisoblanadi. Aynan bu,


mexanik energiyani to'playdi va qayta qayta ishlanadigan moddaning kristall strukturalaridagi tuzulishini belgilaydi.



Rossiya Federasiyasining 10.10.1997-yildan olingan patentida siyrak yer elementlarini koordinatsion birikmalar sintez qilish metodikasi keltirilgan.



A) $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$



B) CuSO_4

Boshlang'ich birikmalar sifatida siyrak yer elementlari Eu, Y, Tb, Lu, Pr, Gd, Nd, Pm, Dy, Ho, Tm, La, Ce metallarining gidroksidlari yoki tuzlaridan foydalanadi, kompleks xosil qiluvchi sifatida organik mineral kislotalar hamda siyrak yer elementlari ionini luminisensiyasini sensibilizirlash xususiga ega bo'lgan neytral ligandlar, mumkin; benzoy kislotalari (bk) va uning orto metoksi benzoy (MBk), nikotin (NK), pikolin (PK) kislota tipidagi va ularning xosilalari kopurnaya kislota (KOP) va ularning xosilalari xinaldin kislota, etilen diamin tetrasirka kislota, b- diketonlar; bezzoilatsefondibenzoilmetan, tenoiltrifloratseton, benzoiltufloratseton va boshqalar ishlatiladi.

Kompleks xosil qiluvchilarning neytral ligandlari sifatida 2.2-dipiridil (DP), 1.10-fenontrolin (FEN), suv, dimetilsulfooksid (DMSO), digeksilsulfooksid (DSGO), trioksilfosfinoksid (TOFO), trifenilfosfinoksid (TFFO),

tributinfosfinoksid (TBFO), trietilamin (TEO), tributilamin (TBA), dietilamin (DEA), difenilguanidin (DFGA) tipidagi va boshqalar ishlatiladi.

Siyrak yer elementlari va neytral ligandlar orasidagi nisbatlarni komplekslarning fotobarqarorligi va tashqari sensibilizatsiyadan yaxshilanishdan tashqari elementning valentligini aniqlaydi va qoida bo'yicha 1:1-2 nisbatlari olinadi. Laboratoriya sharoitida birikmalarni tayyorlashda kompleks xosil qiluvchi siyrak yer elementlarni stexiometrik kerakli miqdor tortib olinadi (organik yoki noorganik kislotalar neytral ligandlar) va agar zarur bo'lsa metallarning qo'shimcha birikmalari olinadi, so'ngra xosil bo'lgan aralashma reaktorga solinadi, ishlovchi jism olib boriladi (sharlar), bu yerda miqdor jihatdan $\frac{1}{2}$ - 10ga nisbatan aniqlanadi va reaksiya massani kerakli chastotali vibratsiyaga qo'yiladi.

Tatbiq etilgan usul siyrak yer elementlari komplekslarni xosil qilishni bir bosqichdayoq 95-99% unumga yetkazib olish mumkin va tayyor mahsulotni 99.2-99.9% da toza chiqishi kuzatiladi.

1.4. Metall karboksilatlarini asosidagi o'simlikni o'stiruvchi stimulyatorlar

Metall karboksilatlarining ayrim organik ligandlar bilan tanlab o'zaro ta'sirlashuvi aniqlangan. Ajratib olingan birikmalarning fizik-kimyoviy xossalari (rang, eruvchanlik, suyuqlanish harorati, parchalanish harorati va molyar elektro'tkazuvchanlik) o'rnatildi. Sintez qilingan komplekslarning tarkibi, individualligi va tuzilishi tebranma spektroskopiya, PMR, ESDO, RFA, RSA, EPR va termik, magnitkimyoviy, shuningdek kvantokimyoviy tahlil uslublari yordamida aniqlandi [22].

Spektroskopik tahlil ma'lumotlaridan kelib chiqib formamid, asetamid va propionamid birikmalarida amidlar koordinatsiyasi kislorod atomi orqali amalga oshiriladi. Asidoligandlar chastotalari $\nu(\text{N-C})$ $\nu(\text{C-C})$ holatlari tahlilidan karboksil gruppalarining dentatnligi aniqlandi. Ikki anionli suksinat tarkibida ko'prikcha usulidagi koordinatsiyalanishga bog'liq o'zida bi-, tri- yoki tetradentatnli komplekslarni namoyon qiladi. Steritik halaq beruvchi uglevodorod radikali o'sishi

bilan amidlarning asosligi tushadi va bu holat formamiddan propionamidgacha kompleks hosil qiluvchilik qobiliyatni kamaytiradi. Propionamid molekulasida imidoalkogol shaklining qo'llanish sabablari muhokama qilingan. Metall va asidoligand tabiatiga bog'liq bo'lmagan holda karbamid, tiokarbamidli komplekslarda apikalli ligand koordinasiyalanishi karbonil gruppasidagi kislorod atomi orqali amalga oshiriladi. Laktat anioni koordinasiyasi gidroksil va karboksil gruppasidagi kislorod atomi hisobiga sodir bo'lib, laktat anioni bidentatlikni namoyon qiladi va besh a'zolik xelat siklini hosil qiladi. Ayni paytda uch anionlik limon kislotasi koordinasiyalanishning heptadentatli ko'priqcha usulini polimer tuzilishli kompleksni hosil qilish bilan namoyon qiladi. Metilendikarbamid molekulasining koordinasiyalanish xususiyatining metall, asidoligand tabiatiga va komplekslar tarkibiga bog'liqligi ko'rsatildi: karbonil gruppasidagi kislorod atomi orqali; kislorod atomi va olti a'zoli sikl hosil qiluvchi ikkilamchi azot atomi orqali; koordinasiyalanishning ko'priqcha usuli bilan karbonil gruppasidagi kislorod atomi va ikkilamchi amin gruppasi azot atomining ikkita olti a'zoli metalllosikllar bilan hosil qilishi orqali. Bunda karboksil gruppaning dentatlik xarakteri noldan ikkigacha almashinadi. Pirazinamidli birikmalardagi ligand koordinasiyasi markaziy atom tabiatiga va komplekslar tarkibiga bog'liq. Pirazinkarbonli kislota va pirazinamid anionining metalllosiklining hosil bo'lishiga bo'lgan moyilligi taqqoslandi. C-O bog'ining uzayishi siklini to'xtashini va besh a'zoli sikl hosil bo'lishiga pirazinkarbon kislota anionining yuqori moyilligini ta'minlovchi xelatli effektning namoyon bo'lishiga yordam beradi. Barcha birikmalarda nikotinamid molekulasida geteroatomli azot orqali koordinasiyalaydigan monodentatli ligand rolini o'ynaydi. Asidoligandlar tabiatiga bog'liq ravishda komplekslar M-M bog'ga ega ikki yadroli monomer, dimer va polimer tuzilishli oktaedrik hamda kam holatlarda tetraedrik konfiguratsiyali markaziy atomlarga ega bo'lishlari mumkin. Suksinatli va sitratli komplekslar uchun suv molekulalarining va karboksil gruppa kislorod atomlarining konkurentli koordinasiyasi muhokama qilingan. Izonikotin kislota gidrazidi komplekslarida apikal ligandi geteroatom azoti, yoki kislorod atomi va besh a'zoli siklini hosil qilishi bilan boradigan

gidrazid zanjiri azoti orqali koordinirlanadi. Ftivazidli birikmalarda ftivazid koordinasiyasi metalllosikl hosil bo'lishi bilan boradigan fenol va metoksil gruppalar kislorod atomi orqali amalga oshiriladi. Larusan barcha komplekslarda azot geteroatomi orqali koordinirlanadi. Asidoligandlar bidentat yoki tetradentat koordinasiyalanish usuliga ega. Metazid metall karboksilatlar bilan uch tipda koordinasiyalanadi: azot geteroatomi orqali, kislorod atomi orqali va besh a'zoli siklni hosil qiluvchi azot va bir vaqtni o'zida oxirgi ikki bog'lanishni qo'llash [23].

Bir qator ishlarda kvant kimyosi uslubi bilan erkin va koordinirlangan ligand molekularining tuzilishi, konfarmasiyasi, elektron strukturasi va reaksiya qobiliyati tadqiq qilindi. Ligandlar koordinasiyasi atomlarda zaryadlarning sezilarli qayta taqsimlanishiga va shu bilan birga chegaradagi orbitalar energiyasiga ta'sir qilib, natijada amidlarning reaksiya qobiliyatlarini rostdashni ta'minlaydi [24].

Spektrlarning diffuzion aksi natijalari asosida markaziy ionlar koordinasion bog'larining geometrik konfigurasiyasi aniqlandi. Spektrokimyoviy parametrlar hisoblandi va kristall maydondagi Ni (II) komplekslarda, ligandlar bir qatarga joylashishi ko'rsatilgan: nikotinamid > formamid > pirazinamid > asetamid > salisilamid > metilendikarbamid > suv.

Olib borilgan tahlillar asosida beshta kompleks birikmalarning kristall va molekulyar strukturalari aniqlashtirildi va rasshifrovka qilindi. $\text{CoC}_4\text{H}_4\text{O}_4 \cdot (\text{H}_2\text{O})_4$ va $\text{CoC}_4\text{H}_4\text{O}_4 \cdot (\text{H}_2\text{O})_2 \cdot (\text{NKA})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ molekulari tuzilishi kobalt atomining oktaedr bo'lishi bilan polimer xarakterga ega. Suksinatli dianion ko'priki koordinasiyasini namoyon qiladi. NKA molekulasi aksial koordinirlangan H_2O almashinish suksinat gruppasining koordinasiyalanish xarakteriga ta'sir o'tkazmasligi ta'kidlandi. Mis asetati monogidratining ikki yadroli tuzilishi past haroratda (-183°C) saqlanishi isbotlangan. EPR spektri anomaliyasi bo'yicha xona va past haroratlarda mis asetatini formamid, asetamid, nikotinamid, monometilolkarbamid, karbamid, salisilamid, izonikotin kislotasi gidrazidi, ftivazid va nitrokarbamid uchun $\text{Cu}_2(\text{CH}_3\text{COO})_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ tipidagi ikki yadroli tuzilish taklif qilindi.

Sintez qilingan komplekslarning termik holati tadqiqot natijalari formamid, asetamid va propionamid komplekslarining bosqichma-bosqich organik ligandni yo'qotishi bilan parchalanishini ko'rsatdi. Asidoligandlar, markaziy ion tabiati va tuzilish xarakteri birikmaning termoliz turg'unligiga selilarli ta'sir ko'rsatadi. Komplekslarning deaktivatsiyasi karboksil gruppasi dentatnligining oshishi bilan kechishini ko'rsatdi. Uzlüksiz ishlaydigan reaktorlarda 10 tadan ortiq kompleks birikmalar o'rganilgan. Komplekslarning degidratasiya va deaktivasiya mexanizmining kinetik parametrlari hisoblab chiqildi. Tadqiq qilingan birikmalarda dominirlovchi mexanizm bo'lib fazalararo silindrik simmetriya va Juravleva-Lesoxina-Tempelmannning uchlamchi diffuziya modeli bo'lishi aniqlandi.

Olingan natijalarning foydalanish sohasi o'tkazilgan tadqiqotlar asosida foydalanish mumkinligi ko'rsatilgan. Ayrim holatlarda metall karboksilatlarining amidlar bilan o'zaro tanlab ta'sirlashuvi asosida metallar va organik ligandlarni tozalash, ajratish va aniqlash ishlari olib boriladi. Kam qonlikka, yallig'lanishga, aterosklerozga qarshi ta'sir ko'rsatuvchi metall oksidlari va kompleks birikmalarning fizik-mexanikaviy va dekarativ xossalarini yaxshilash uchun glazurli komponentlarni olingan, shuningdek g'o'za, bug'doy, makkajuxori, sofler va bosmalarning hosildorligini oshiruvchi yuqori samaradorli stimulyatorlar yaratilgan.

$[\text{Cr}_3\text{O}(\text{O}_2\text{CCH}_3)_6(\text{NA})_3] \cdot \text{PF}_6 \cdot 3\text{CH}_3\text{CN}$ (I) tarkibli Sr^{3+} ning nikotinamid-(NA) bilan kompleksi bir guruh olimlar tomonidan o'rganilgan. Kukunsimon namuna I ning 2-300 K harorat oralig'ida magnitlik xossasini o'lchash Sr^{3+} ning uchta ioni antiferromagnit ravishda $j = -10,4 \text{ cm}^{-1}$ bilan bog'langanligini ko'rsatdi. Birikma (I) ning RSA usuli bilan kristall strukturasini aniqlangan. Cu^{2+} ning mochevina bilan $[\text{Cu}_2(\text{O}_2\text{CC}_n\text{H}_{2n+1})_4(\text{CO}(\text{NH}_2)_2)]$ ($n=5$ dan 11 gacha) va $[\text{Cu}_2(\text{O}_2\text{CC}_5\text{H}_{11})_4(\text{CO}(\text{NH}_2)_2)]$ – II tarkibli koordinasion birikmasi mualliflar tomonidan sintez qilingan va o'rganilgan. Olingan komplekslarning tadqiqotlari elementn analiz, elektron spektroskopiya, tebranma spektroskopiya, difraksii rentgen nurlarining difraksiyasi, magnititlik xossalarini o'lchash usullari bilan

olib borilgan. RSA ning II usuli bilan uchun kristall struktura aniqlandi. Sintez qilingan birikmalarning biologik faolligi izlanishlari asosida fungisidlik xossalari aniqlandi. $[\text{ZnO}_7\text{N}_2\text{C}_{13}\text{H}_{17}]\cdot\text{C}_7\text{O}_3\text{H}_5$ tarkibli salisilatning [sinka triakva (salisilat) (nikotinamid)] kristall strukturasi da keltirilgan. Kristallari monoklin: a -19,600, b -7,518, c -30,918 Å, β 109,45°, $\rho_{\text{his.}}$ 1,568, $Z=8$, f.gr. S2k.

Struktura diskretli kompleks kationlar va ularga vodorod bog'lanish bilan birikkan nokoordinirlangan salisilat gruppasidan tuzilgan. Buzilgan trigonal-bipiramidal va kvadrat-piramidal strukturaning oraliqaro atomi Zn ning koordinasiyalangan poliedri hisoblanadi. Metall va karbonil kislorod atomi ($\text{Zn}\dots\text{O}$ 2,687Å) o'zaro zich ta'sirlashuvini hisobga olib, ruh atomi K.ch.-6 ga ega. Kompleks kationda ichki molekulyar vodorod bog'lanish $\text{O}-\text{N}\cdots\text{O}$ hosil bo'ladi.

Mualliflar tomonidan sintez qilish sharoiti, 41 ta qattiq 3d–metall qator psevdamidoasetatli koordinasion birikmalar aniqlandi. Tebranma spektroskopiya, elektron diffuzion aks ettiruvchi spektrlar, rentgenfazali, derivatografik va kvantkimyoviy tahlillar asosida bu birikmalarning individualligi va tuzilishi isbotlandi.

Spektroskopik ma'lumotlar asosida quyidagilar aniqlandi:

-asetamid, karbamid, nitrokarbamid birikmalarida ligand koordinasiyasi karbonil gruppasidagi kislorod atomi orqali amalga oshiriladi.

-tiokarbamidli birikmalarda koordinasiya oltingugurt atomi orqali sodir bo'ladi

-Nikatinamid molekulasida birikmalarda azot geteroatomi orqali koordinasiyalanib, monodentatli ligand rolini o'ynaydi.

Kvankimyoviy tadqiqot usullar yordamida $\text{Cu}_2(\text{CH}_3\text{COO})_4\cdot\text{AA}\cdot\text{ANK}$ tarkibli ikki yadroli mis asetati kompleksi va $\text{Zn}(\text{CH}_3\text{COO})_2\cdot\text{TK}\cdot\text{ANK}$ tarkibli oktaedrik konfiguratsiyali ruh asetatining tuzilishi, elektron strukturasi va reaksiya qobiliyati tadqiq qilindi. Atomlarda zaryadlarning taqsimlanishi, koordinasion bog'dagi atomlarning gibrid holati qayta tahlil qilindi. ESDO natijalari asosida Mn(II), Co(II) larning har xil amidlar bilan kompleks birikmalaridagi markaziy atom oltita koordinasion bog'ga ega ekanligi ko'rsatildi. Kobaltli birikmalar uchun

parchalanish parametrlari kristall maydon 10 Dq bilan hisoblab chiqildi. Sintez qilingan komplekslarning termik holati tadqiq qilindi. Natijada AA kompleksi bosqichma-bosqich suv va asetamid molekulasi parchalanishi bilan yo'qotilishi aniqlandi. Kompleks termolizining bosqichi asetat gruppasi, neytral ligandlar, markaziy ion koordinasiyalanish usuliga va kompleks tuzilishiga sezilarli bog'liqdir. Tadqiqot natijalari asosida dastlabki ikki valentli marganes, kobalt, magniy, mis va ruh asetatining ikki molekula amidlar bilan mexanokimyoviy o'zaro ta'sirida ikkita suv molekulasi almashinishi, shuningdek asetat gruppasining bidentatli koordinasiyalanish natijasida markaziy atomning suvdan to'la xalos bo'lishi aniqlandi.

Metall karboksilatlar kompleks birikmalarining suvli eritmalarining bug'doy, qizilmiya, bosma va g'o'za hosildorligiga stimulyatorlik ta'siri urug'larni namlash yo'li bilan sinovdan o'tkazilgan. Mazkur tajriba ishlari O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi botanika instituti, paxtachilik ilmiy-tekshirish instituti va Respublika urug'chilik va paxtachilik ilmiy-tekshirish institutida olib borilgan. O'tkazilgan tajribalar G-6 preparatidan foydalanilganda urug'ning unib chiqish energiyasi alohida tashkil qiluvchi komponentlarni qo'llashga nisbatan sinergetik samaradorlik hisobiga ortadi. G-6 dastlabki birikmalari mexanik aralashmalarining samaradorligi G-6 samaradorligiga yaqin bo'lib keyingisi suv muhitidan ajratib olingan. X-3 i S-5 komplekslari atirgul va bosma urug'ining unib chiqishiga va o'sib chiqish energiyasiga stimulyatorlik ta'siri ifodalanilib, mazkur o'simliklardan zararsiz bo'yoqlar olinadi. Atirgul urug'ining yantar kislotasi, X-3 va X-5 ni qo'llashdagi unib chiqish 66,71, 161,90 va 95,30 % ni tashkil etib, bosma urug'ining unib chiqishi esa 4.26, 7.28, 9,22%. ni tashkil qildi. G-17 preparatining qizilmiya o'sish energiyasiga bo'lgan stimulyatorlik ta'siri O'zR FA botanika institutida o'tkazildi. Qirq kunlik kuzatishlar G-17 preparatining qizilmiya o'simligi organlarining o'sish va rivojlanishiga stimulyatorlik ta'siri namoyon bo'lishini ko'rsatdi.

G-13, TJ – 85, T – 86 preparatlarining g'o'za o'sishiga stimulyatorlik ta'siri kam zaharli va yuqori samarali bo'lib chiqdi. Koordinasion birikmalarning

stimulyatorlik xossasi metall tabiatiga, koordinasiyalanish usuliga va asidoligandlarga, shuningdek komplekslarning tarkibiga va tuzilishiga bog'liqligi aniqlangan.

Stimulyatorlarning ko'p yillik va ko'p tomonlik tadqiqotlari, nafaqat, hosildorlikni oshirib qolmay, balki urug' sinfini ham yaxshilaydi, o'simlik rivojlanishi davrida namlikning bug'lanishini 15-20% ga kamaytiradi, oxirgi mahsulotni texnologik ko'rsatkichlarini yaxshilaydi. G-13 preparati g'o'zani etishtirishda qishloq xo'jaligida foydalanish uchun Respublika ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi ilmiy kengashida tasdiqlangan va tavsiya qilingan.

1.5. Kompleks birikmalar tadqiqotida differensial termik usulning ishlatilishi, endotermik va ekzotermik effektlar

Differensial - termik analiz yordamida moddalarni qizdirish jarayonida ulardagi issiqlik effekti bilan sodir bo'ladigan xar xil jarayonlar o'rganiladi. Bu usulni ilk bor 1887 yilda Le-Shatel'e tuproq mineralini o'rganishda qo'llagan. Issiqlik yutilishi yoki chiqishi bilan olib boriladigan fizikaviy va kimyoviy jarayonlar uzliksiz differensial egri chizig'ida ma'lum bir endotermik yoki ekzotermik effektlar beradi. Bunday jarayonlarga misol qatorida kristallanish, suyuqlantirish, moddaning polimorfizm o'zgarishi va boshqalar kiradi. Differensial-termik analizi ishlatilish sohasiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

- 1) differensial termik analiz - issiqlik energiyasining yutilishi yoki chiqishini aniqlash;
- 2) termograviometrik analiz - modda og'irligining harorat ta'sirida o'zgarishini aniqlash;
- 3) gazovalyumetrik - harorat ta'sirida gaz ajralib chiqishi o'rganish.

Haroratning differensial egri chizig'i differensial termopara yordamida aniqlanadi. U ikki termoparadan iborat bo'lib, bir xil materialdan yasalgan va ularning uchi bir - biri bilan biriktirilgan.

Termoparalarning birini issiq uchi moddaga, ikkinchisi esa etalonga tushuriladi. Qizdirish vaqtida termoparalarda hosil bo'ladigan elektr yurituvchi kuchlar (e.yu.k.) bir biriga qarama qarshi yo'nalgan bo'ladi. Agar modda va etalon pechda bir me'yorda qizdirilsa va modda holatida o'zgarish bo'lmasa e.yu.k. lar bir biriga teng bo'ladi. Natijada galvanometr zanjirida tok yo'qligini ko'rsatadi. Differensial termogrammlar esa absissa o'qiga paralel chiziq holida bo'ladi. Agar modda qizdirish vaqtida o'zgarsa, uning harorati etalonnikidan yuqori yoki past bo'lishi mumkin. Modda va etalon orasidagi farq termoparada turli kattalikga ega bo'lgan e.yu.k. hosil qiladi. Endotermik reaksiyalar uchun differensial egri chiziq absissa o'qidan pastga qarab turadi. Og'ish kattaligi modda va etalonning harakatlari orasidagi farqni xarakterlaydi. U bir holatdan ikkinchisiga o'tayotgan moddaning miqdorini va sodir bo'layotgan intensivligini ifodalaydi.

Moddani qizdirish yoki sovutish vaqtida hosil bo'ladigan effektlar to'g'ridan to'g'ri undagi fizik-kimyoviy o'zgarishlarga bog'liqdir. Masalan, endotermik effektda:

- a) moddalar qizdirilganda parchalanib gaz ajralib chiqadi (degidratasiya, dekarbonizatsiya), bunda moddaning kimyoviy tarkibi o'zgaradi;
- b) murakkab birikmalar qizdirilganda oddiy mahsulot ajralib chiqadi;
- v) moddalar enantiotrop xarakterda bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tadi;
- g) moddalar kongruent va inkongruent suyuqlanadi.

Ekzotermik effektda esa:

- a) tekshiriladigan moddaning gaz muhitni yutishi bilan boradigan kimyoviy reaksiyalar (oksidlanish);
- b) monotrop xarakterdagi polimorf o'zgarish jarayonlari, bunda beqaror bo'lgan modifikasiya barqaror holatga o'tadi;
- v) beqaror amorf holatdan kristall holatga o'tish (gel, shisha, suyuqlanma).

Shunday qilib differensial-termik analiz yordamida tekshiriladigan moddada faza o'zgarishlari sodir bo'lish-bo'lmasligini aniqlash mumkin. Kimyoviy

reaksiyalarning boshlanishi, borish va tugash haroratlarini topishga, fizikaviy va kimyoviy o'zgarishlarning tezligini, reaksiyalarda qatnashayotgan moddaning miqdorini aniqlashga imkon beradi.

Kompleks birikmalar fazoviy tarkibini tadqiq qilishda differensial termik usul bilan bir qatorda termograviometrik metod ham keng qo'llaniladi.

Bu usulda modda og'irligining issiqlik ta'sirida o'zgarishi kuzatiladi. Modda qizdirish davomida vaqti-vaqti bilan tortib turiladi. Olingan ma'lumotlar harorat-og'irlik koordinatadagi sistemasi o'tkazilib, topilgan nuqtalar birlashtirilsa, termograviometrik egri chiziq hosil bo'ladi (TG). Hosil bo'lgan diagramma termik analiz yordamida o'rganiladi:


- 1) modda energiyasining o'zgarishi (DTA);
- 2) modda og'irligining o'zgarishi (TG);
- 3) moddadan tayyorlangan namuna o'lchamining o'zgarishi (dilatometrik usuli);
- 4) modda elektr o'tkazuvchanlik xususiyatini haroratga bog'liqligi va boshqalar.

1904 yilda A.S.Kurnakov har qanday issiqlik jarayonini vaqt birligi oralig'ida avtomatik sur'atda qayd qiladigan pirometr kashf etdi. Rus olimlari L.G.Berg, A.V. Nikolaev, E.YA.Svetkov, E.K.Keler va boshqalar keyingi yillarda differensial termik analiz usulining va unda qo'llaniladigan asboblarning takomillashuviga katta hissa qo'shdilar.

Xozirgi vaqtda DTA dan foydalanib, moddalarni qizdirish va sovitishda sodir bo'ladigan faza o'zgarishlarini, qanday reaksiya (birikish, parchalanish, bir turdan ikkinchisiga aylanish) ketganligini aniqlash hamda modda tarkibini miqdoriy analiz qilish mumkin.

DTA da ishlatiladigan asboblari. Hozirgi paytda DTAda ishlatiladigan asboblarda temperaturani o'lchash prinsipi Le-Shatel'ening oddiy usulidan birmuncha farq qiladi. Hozir tekshirilayotgan modda entalpiyasi differensial termoparalar yordamida o'lchanadi (2.1-rasm). Apparaturada uchta termopara bo'lib, ulardan biri qizdirgich pechning temperaturasini, qolgan ikkitasi-bir-biriga

qarama-qarshi sxema bo'yicha ulangan ikkita termopara esa etalon va tekshirilayotgan moddalar temperaturasi orasidagi farqni ko'rsatadi. Bu termoparalar temperaturalar farqiga qarab millivoltmetr va galvanometr ko'rsatkichlarining o'zgarishi bo'yicha graduировka qilingan. Tekshirilayotgan modda qisqich blokidagi uchta birinchi termoparaning ulangan uchi tushiriladi. Qizdirgich pechning temperaturasini o'lchaydigan ikkinchi va uchunchi termoparalarning kavsharlangan uchlari inert moddaga botirilgan bo'ladi. Tekshirilayotgan modda solingan qisqich bloki oson rostlanadigan elektr yordamida qizdiriladi. Bunda qizdirgich pechning temperaturasi bir tekis oshirib borilsa, tekshirilayotgan modda reaksiya boshlanguncha uning temperaturasi inert modda temperaturasi bilan bir xilda oshib boradi.



1.5.1 – rasm. Differensial termopara qaynoq uchlarini etalon va tekshirilayotgan moddaga tushirish sxemasi.

Reaksiya boshlanishi bilan uning turiga (endotermik yoki ekzotermik) qarab, tekshirilayotgan moddaning temperaturasi inert moddaning temperaturasidan yo ortib, yoki kamayib ketadi. Galvanometring ko'rsatkichiga qarab moddalar temperaturasi farqining katta-kichikligini aniqlash mumkin. Galvanometr ko'rsatmasini har 5 yoki 10⁰ C dan keyin yozib olib, grafik chiziladi.

Differensial termik analiz usuli bilan tekshiriladigan jarayonlar.

Jarayonlar bir necha xil bo'lib, termik analizda ko'p uchraydiganlari fizikaviy, fizik-kimyoviy va kimyoviy jarayonlardir.

Fizik jarayonlar. Moddalarni erish temperaturasi, ularning tozaligi va individualligini isbotlaydigan belgilaridandir. Agarda moddaga ozgina qo'shimcha boshqa modda aralashtirilsa uning erish temperaturasi o'zgaradi. Termik analizda ko'pgina toza moddalarning erish temperaturalari etalon sifatida ishlatiladi.

1.5.1-jadval.

№	Moddaning nomi	Erish temperaturasi
1	2	3
1.	Muz	0
2.	Naftalin	80,0
3.	Rb	327,5
4.	Sn	231,85
5.	K ₂ SO ₄	1069,15
1	2	3
6.	Cu	1082,6
7.	Pt	1771,01
8.	Rh	1775,0
9.	W	3400,0

Qaynash. Bunday xolatda suyuq moddalar gaz holga o'tib suyuqlikning par bosimi tashqi bosimidan bir necha marta ortib ketadi. Termik analiz bo'yicha qaynash jarayonini sovitish egri chizig'ini olib bo'lmaydi, ammo bosimning oshishi bilan qaynash temperaturasini ko'tarilishi bog'liqligini o'rgansa bo'ladi.

Fizik-kimyoviy jarayonlar. 1. Polimorfik o'tish jarayoni: bu jarayon o'z tabiatiga qarab enantitropoli va monotropoli ko'rinishda bo'ladi. Enantitropoli jarayon qaytar jarayondir. Masalan, NH₄NO₃ ning 34,80 va 125⁰ gradusdagi jarayonlari sovitilganda orqaga qaytariladi. Monotropia jarayon sovitilganda qaytarilmaydi.

Masalan: CaCO_3 ning aragonid mineralida 450 gradusda monotropi o'tish kuzatiladi.

2. Polimorfizm-organik birikmalar uchun uch xil klassifikasiyalanadi.

1. Fizikaviy

2. Kriptokimyoviy

3. Kimyoviy polimorfizm

Fizikaviy polimorfizm molekuladagi atom va ionlarning kristall panjaralarida joylashishi turlicha bo'ladi va bu bog'lanish modda eriganda tezda erib ketadi. Kriptokimyoviy polimorfizm esa, (kompleks birikmalarda uchraydi) ko'pgina xollarda molekularning assosiyalanish darajasi turlicha bo'ladi. Bu xolat eriganda ham saqlanib qoladi. Faqatgina kimyoviy jarayonlarda yo'qolib ketadi.

Kimyoviy polimorfizm polimer moddalarda uchraydi. Turli xil polimerlanish darajasi bo'yicha farq qilgani uchun umumiy holatda aralash kristallarning fazoviy kristall panjaralari bilan farqlanadi. Ushbu holat ham faqatgina jarayonlarda yo'q bo'ladi.


Muvozanat bo'lmagan holatdan muvozanat xolga o'tish

Bu xolat o'z ichiga fizikaviy va kimyoviy jarayonlarni oladi va quyidagilardan iborat bo'lish mumkin:

1. Amorf xolatdan kristall holga o'tish (oyna va shisha texnologiyasida qo'llaniladi).
2. Kristallarning yiriklashishi
3. Qattiq ertimalarning parchalanishi
4. Monotropik o'tishlar
5. Kimyoviy jarayonlar

Termik analizda eng ko'p uchiraydigan reaksiyalar shu sohaga oid bo'lib, turli xil reaksiyalarni o'z ichiga oladi. Degidratatsiya (suv molekulasini chiqarib yuborish), deakvatatsiya (koordinasion birikmalarga bog'langan suv molekulasini chiqarib yuborish), dekarbonillash, degalogenlash (termik analizda reaksiya natijasida hosil bo'lgan galogen kislotalarni chiqarib yuborish) va boshqalar. Termik analizda oksidlanish-qaytarilish jarayonlarini, birikish yoki o'rin olish

reaksiyalarni kuzatish mumkin. Bu jarayonlarni sifat termik analiz jihatidan to'g'ri taxlil qilish uchun oraliq maxsulotlarni biz yuqorida bayon etgan qo'shimcha fizik - kimyoviy uslublarni qo'llab isbotlashimiz kerak. Yuqorida keltirilgan jarayonlarga misollar keltiramiz. Masalan: monogidrat Ca oksalatining $\text{Ca}(\text{C}_2\text{O}_4)\text{H}_2\text{O}$ termogrammasida:



1.5.2 - rasm. $\text{Ca}(\text{C}_2\text{O}_4)\text{H}_2\text{O}$ termogrammasi.

